

O‘QITUVCHILARDA KASBIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Odiljonova Rayxona Okibjon qizi

Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning e’lon qilinishi munosabati. O’qituvchi o’z bilimini o’quvchilarga bera bilishi, eng muhim ularda bilimga qiziqish uyg’otish, mustaqil o’qish ko’nikmalarini tarbiyalash va bu borada bola faoliyatini tashkil etishga rahbarlik qilish kerak. buning uchun o’qituvchi tarbiyashunoslikni, ruxiyatni va o’z fanining metodikasini chuqur egallashi, fanining yangi yutuqlari bilan izchil qurollanib borishi zarur.*

Kalit so’zlar: *Uslubiy bilimdonlik, kasbiy bilimdonlik, ijtimoiy bilimdonlik.*

Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning e’lon qilinishi munosabati bilan mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o’rganish sohalarini isloh qilish bilan bog’liq juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Islohlarning taqdiri va samarasi birinchi navbatda kadrlar samarasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog’lik javob berishga bog’liqdir. Zero, yurtimizning ertangi xayoti va kelajak taqdiri bugungi tayyorlanayotgan kadrlar qo’lidadir. Uzluksiz ta’lim tizimining sifati albatta o’qituvchi shaxsining faoliyati bilan baholanadi. Ta’lim davlat ijtimoiy taraqqiyotining ustivor yo’nalishi deb belgilangan ekan, bugungi zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lishi kerak degan savolga javob berishimiz zarur. Yangilanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqib zamonaviy milliy pedagogika va psixologiya fanlari o’z oldiga barkamol avlod, komil inson shaxsini tarbiyalashdek oliy maqsad sari rivojlanib borayotgan bir davrda o’qituvchilik kasbi eng asosiy markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Chunki o’qituvchi o’quvchini shaxs sifatida shakllantiradi, katta xarflar bilan yoziladigan INSON degan so’zga loyiq qilib tarbiyalashdek nozik, murakkab mas’uliyatli vazifani amalga oshiradi. Ota-onalar o’zlari uchun eng qadrlil bo’lgan yuksak orzu umidlar bilan bog’liq farzandlarini ishonib topshiradilar. O’qituvchi ularning taqdirini belgilab kelajak xayotga tayyorlaydi. Kelgusida bu o’quvchilar komil inson sifatida shakllanib “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” shiori bilan xayot kechiradilar. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “O’qituvchilik kasbi shu qadar ajoyib kasbki, yorug’ dunyoda unga tenglashadigan biron bir kasb yo’q”-deb aytgan edi. O’qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig’ini bajaradi. Shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassisni tayyorlashda o’qituvchi muayyan ijtimoiy javob berishi lozim. O’qituvchi mustaqil rivojlangan, ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma’lumoti bor, ya’ni o’z fanining chuqur bilimdoni pedagogic muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarini egallagan bo’lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda aniqlay bilishi, o’rganishi va baholay olishi zarur. Bugun pedagogning ma’naviyati, mafkuraviy e’tiqodi va o’quv jarayonini yaxshi bilishi katta

ahamiyatga ega. Birinchidan, pedagog jamiyatning fuqarosi sifatida o‘z mavqei va faol o‘rnini o‘quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Hususan, uning jamiyat va o‘z jamoasidagi o‘rni, tanlangan kasbi, o‘qitayotgan predmeti bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me‘yor va qonunlarni hurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning e‘tiqodi va bilimdonligi uning yangi bilimlar, o‘zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, e‘tiqodli va bilimdon pedagog o‘ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar shunday noyob qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o‘rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar. Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o‘ta muhim.

Bular quyidagilar:

Ijtimoiy bilimdonlik.

Dars mobaynida sinf bilan samarali o‘zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va sog‘lom ma‘naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

Uslubiy bilimdonlik.

Barcha bilimlarni, ko‘rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta‘lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik gobiliyati.

Kasbiy bilimdonlik.

O‘z fanini va predmeti sohasi bo‘yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo‘la olishi, o‘z ustida ishlash qobiliyati.

Amaliyotda eng obro‘li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo‘lishadi va shundaylarni o‘quvchilar yaxshi gabul qilishadi. Chunki zamonaviy o‘quvchi ko‘plab ma‘lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab-takliflarni aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek "Muallimning magsadi mansab uchun kurash bo‘lmasligi, bilmagan ilmlarni aytmasligi, o‘zini ko‘rsatish uchun dars bermasligi, ochko‘zlik va joxillik qilib, quruq gap sotmasliklari, g‘avg‘o ko‘tarmasliklari lozim". U muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb hisoblaydi. Shu sababdan bo‘lsa kerak:

Haq yo‘lida kim senga bir xarf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas oning haqqin ado ming ranj ila.

Nazarimdan ushbu misralar aynan boshlang‘ich sinf ‘qituvchisigagina aytilgandek. Chunki biz bo‘lajak o‘g‘ituvchilar kabimiz bilan qancha faxrlansak, umrimizning bebaho durdona hosili-sevgan kasbimizning durdona mevasi, faxri-iftixorimiz bo‘lgan shogirdlar bilan batxiyormiz. O‘sib kelayotgan o‘qituvchi bo‘lishimizga qaramay ulug‘ Vatanimizning qaysi yeriga borsak, "Salom ustoz-o‘qituvchim", deb shogirdlarimiz peshvoz chiqishadi. Biz shunda o‘zimizni qanchalik batiyor inson ekanligimizni chuqurroq xis etamiz. Umrimizga yana umr qo‘shilgandek o‘zimizni tetik sezamiz. Ana shu narsa bizgi yana kuch-quvvat va kasbimizga beqiyos muxabbat baxsh etadi. O‘g‘ituvchi mehnatini tagdirlash "Xalq o‘qituvchisi" degan yuksak unvonning ta‘sis etilishida yana bir yorqin ifodasini topdi.

Shuningdek o'qituvchi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak: insoniy g'oyaviylik, insoniy e'tiqodlilik, vatanga sodiqlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy burchni chuqur anglash, inson manfaati singari ulug'vor magsad yo'lida mumtoz niyatlar, temir iroda bilan hamdam va hamkorlik, xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish. Xayotda faol pozitsiyada turish, yangiliklarni sezish va ularni xayotga joriy etishda tashabbuskorlik ko'rsatish, xaqqoniylik, printsiptiallik, axloqiy poklik va yosh avlodga mexribonlik, oqilona talabchanlik, yuksak madaniy xulq, nafosat, til va dil birligi, fan asoslarini, jamiyat, tabiat va inson tafakkuri qonuniyatlarini chuqur bilish va jamaoda qo'llay olish, har sohada yosh avlodga o'rak ko'rsata bilish.

O'qituvchining jamiyatdagi muallimlik vazifasi ana shu fazilatlarni o'zida to'la mujassam bo'lishi taqozo etadi. O'qituvchi, eng avvalo yo'l ko'rsatuvchisi yorgin yulduz bo'lib, u o'z faoliyatida yuksak axloq-odob qoidalariga tayanib ish ko'radi va uni ijodiy ravishda boyitishga o'z xissasini qo'shib boradi. O'qituvchi-ziyo tarqatuvchi. U zamon bilan hamnafas gadam tashlashi, fan-texnika yutuqlarini, barcha yangiliklarni targ'ib etishi kerak. O'qituvchi xalqdan bir gadam oldinda yurib odamlarni o'z ortidan ergashtirishi darkor. O'qituvchilik kasiga qadam go'yishni niyatida bo'lgan odam o'z-o'ziga: shu kasbni sevamanmi, dilimda bu xavas o'ti bormi? Men bolajonlik fazilatiga egamanmi? Bir umr ana shu nihoyat murakkab, lekin sharaflilik kasbning jozibali sehri bilan yashay olamanmi? degan savollarni o'ziga berib, o'z qalbi bilan gaplashib olmog'i kerak.

Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o'qituvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini, tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'qituvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri-diydasi farzandining taqdiri, kelajagi uning qo'lga ishonib topshirilgan. Muallim o'quvchilarning bilimiga baho qo'yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha'n, gadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq. Shunisi ham borki, buni ko'pincha nazorat qilib ham bo'lmaydi. Bu muallimning vijdoniga xavola qilinadi.

O'qituvchi o'z bilimini o'quvchilarga bera bilishi, eng muhim ularda bilimga qiziqish uyg'otish, mustaqil o'qish ko'nikmalarini tarbiyalash va bu borada bola faoliyatini tashkil etishga rahbarlik qilish kerak. Buning uchun o'qituvchi tarbiyashunoslikni, ruxiyatni va o'z fanining metodikasini chuqur egallashi, fanining yangi yutuqlari bilan izchil qurollanib borishi zarur. Tarbiya maxoratining muhim bir tomoni o'quvchini faollashtirish bilan bog'liq. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni-ikkiyoqlama jarayon. O'qituvchi ta'lim beradi, o'quvchi uni o'zlashtiradi. Umumiy ta'lim, jumladan, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o'qish, mehnat qilish, tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatarni taraqqiy ettirish kabilarni ham amalga oshirmoqda. Ta'lim tizimi, shaxsni shakllantirish uchun, davlat ctandarti talablari asosida hamda ta'lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo o'qituvchilar, murabbiylar shaxsini har

tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mas’uliyati katta, u umumiy ta’lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O‘zbekistonimizda o‘zining pedagogik faoliyatini olib borayotgan har bir o‘qituvchi o‘z ustida tinmay ishlashi, doimiy izlanishda bo‘lishi, o‘zidan oldingi pedagoglarning ilg‘or tajribalari bilan doimiy tanishib borishi va shu yo‘llar bilan o‘z mahoratining tizimlarini kengaytirishi lozimdir. Yosh avlodni tarbiyalash murakkab va oliyjanob vazifa bo‘lishi bilan birga ayni zamonda u g‘oya darajada murakkab, mas’uliyatli ishdir. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan bajarish uchun eng avvalo o‘qituvchi o‘z ishinining shaydosi bo‘lishi, bolalarni sevish mas’uliyatini, burchlarini, xulqlarini anglab yetishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: пед.фан.док. ... дисс. – Т., 2016. – 314 б.
2. Rahimova, M. (2019). EDUCATIONAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL AND EMOTIONAL SKILLS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 310-316.
3. Выготский Л.С. Собрание сочинений в 6-ти томах / Л.С. Выготский// Т. 4. Детская психология. Подред. Д.Б. Эльконина. –М.; 1984, 265 с.
4. Гальперин П.Я., Талызина Н.Ф. Формирование знаний и умений на основе теории поэтапного усвоения умственных действий. – М.: 1968.